

**BOLALAR BILAN BOG‘LIQ IRIMLARNING DIDAKTIK
XUSUSIYATLARIGA DOIR**

Nasiba Tursunova

*Navoiy Davlat pedagogika instituti dotsent
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek irimlarining mifologik mohiyatini oydinlashtirish orqali pedagogik jarayonda foydalanishga doir mulohazalar keltiriladi. Irimlarning didaktik xususiyatlari, ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy tarbiyasida tutgan o‘rni borasida bahs yuritiladi. Shuningdek, irimlardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiya jarayonida foydalanish natijasida yerishilajak pedagogik natijalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** irim, mifologiya, didaktik, qadriyat, folklor, taqiq, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi.*

Jahon pedagogikasida bolalarni tarbiyalarshning samarali yo‘llarini topish muammosi hamisha dolzarb mavzulardan biridir. Xususan, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya jarayonini tashkil etish, ular bilan axloqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiyalanuvchi shaxsini komillik sari yetaklash globallashuv jarayonida dunyoning barcha xalqlari pedagoglari oldida muhim va jiddiy masalalarni qo‘ymoqda. Bolalarimizning tabiat va atrof muhitni anglash jarayonidagi qiziqishlari ularning axloqiy me‘yorlarning ma‘lum guruhi tomon yuz burishiga olib keladi. Bu jarayonda xalq pedagogikasiga suyanish, ajdodlarimiz tomonidan meros sifatida bizgacha yetib kelgan urf-odatlar va marosimlar, e‘tiqodiy qarash vositasida ularni tarbiyalash bir qadar samaraliroq kechadi. Tarbiyalanuvchi bolalar axloqini milliy qadriyatlar asosida shakllantirishimizda ularning milliy xususiyatlarni o‘zlashtirishda (millatga xos)tabiiy ehtiyoj yetakchilik qiladi. U o‘zi mansub elat yoki qavmning urf-odatlarini o‘zlashtirishda qiynalmaydi. Chunki uning ota-onasi shu qadriyatlar ruhida tarbiya topgan, bolaning qonida shu qavm qoni oqmoqda. Masalaning ayni shu jihati tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining tarbiyachi tomonga o‘tishini ta‘minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularning axloqiy normalar asosida tarbiyalanishiga erishishda xalq irimlari bilan bolalarimizni tanishtirishimiz maqsadga muvofiq keladi. Irimlar ham o‘ziga xos qadriyatdir.

Lyan Menszening fikricha, irimlar tuzilishiga ko‘ra ikki qismdan iborat uning birinchi qismi bashoratlanuvchi(sharoit yoki sababni izohlaydi), ikkinchi qismi bashorat qiluvchi (oqibatda nima sodir bo‘lishi)ni ifodalaydi. Odatda irimni tinglovchi va uni ijro qiluvchi muayyan harakat pirovardida nima sodir bo‘lishidan ogohlantiriladi. Buning uchun ma‘lum harakatlarni cheklashga to‘g‘ri keladi [Mensze L. 1; 283-288]. Tuva xalq irimlarini o‘rgangan Urana A. Darja, Nadejda D. Suvandii, Mariya A. Kujugetlar ham tuva irimlarining asosida bashorat qilish motivi

turishini ta’kidlaydi. Ularning qarashlarida ham irimlar odamlarning nomaqbul sanalgan ma’lum harkatlarini cheklashni talab etishi qayd etiladi [Darja U.A. va bosh. 2; 213-224].

Irimlar muayyan hodisaning sodir bo‘lishini bashorat qilishga qaratilishi ko‘pchilik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keltiriladi [Zavyalova, Ye. Ye. 3; 187-193]. Irimlarning ma’lum xatti-harkatning taqiqlashi, aks holda yomon bo‘lishi yoki “shunday qilsa” yaxshi bo‘lishiga ishonish tinglovchilarning olam va odamga munosabatlarida o‘ziga xos o‘zgarish yuz berishiga olib keladi [Zavyalova, Ye. Ye. 3; 187-193].

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning irimlar bilan tanishtirish vositasida ularda ekologik tarbiyani shakllantirish ham mumkin. Masalan, Suv bilan bog‘liq irimlar: “Oqar suvga axlat tashlamaslik kerak. Axlat tashlasa, yomon bo‘ladi”, “Suv ichayotgan kishiga tegmaslik kerak. Suv ichganda ilon teginmaydi”, “Suvga tufurmaslik kerak, tufursa yomon bo‘ladi” kabilar. Mazkur irimlar mohiyatida mifologik inonchlar hukmronlik qiladi. Folklorshunos O.Qayumovning qayd etishicha, qadimgi mifologik tasavvurlarga ko‘ra, suv muakkillari, suv parilari suvda istiqomat qilishadi. Agar kimki suvga tufursa yoki axlat tashlasa, suv parilari tomonidan jazolanadi [Qayumov O.S. 4;75]. Bolaning suvni toza asrashga o‘rgatishda xalq irimlari vositasida uning tabiatning noyob unsuri bo‘lgan suv haqida tasavvurlari boyitilish bilan birga suvga nisbatan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Irimlar bolalarning dunyoqarashini shakllantirishga ham yordam beradi. Masalan, olov va uning qoldig‘i kul bilan bog‘liq irimlarimiz orqali bolalarimizning ajdodlarimiz olov kultlariga aloqador mifologik qarashlarini anglashga o‘rgatishimiz lozim. Qadimgi turkiy qavmlarda olov muqaddas sanalgan va unda farishtalar, jinlar, parilar singari ko‘zga ko‘rinmas sehrlil mavjudodlar istiqomat qilishini tushuntirishimiz zarur. Folklorshunoslikda olov bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar har doim uchrashi va turli davrlarda ham u o‘zining ilohiy qimmatini yo‘qotmaganligi qayd etiladi. [Qayumov O.S. 5;89]. Demak, olov bilan bog‘liq irimlar mohiyatini bolalarimizga tushuntirish orqali ularning qadimiy tasavvurlar bilan tanishtirish, bobolarimiz tomonidan olovning muqaddas sanalgani, olovdan ehtiyot bo‘lishimizning asl mohiyatida turgan xavf borasida tasavvuri kengayadi.

Irimlar vositasida bolalarimizni tarbiyalashimiz jarayonida irimlarning mifologik mohiyatini tushuntirish bolalar fantastik fikrlashlariga sabab bo‘ladi. Ularning o‘zga olam haqida mulohazalari kengayadi. Xayolot ufqlari doirasi kengayib, badiiy tafakkuri shakllana boradi. Irimlarda hayot mazmuni aks etadi. Endigina hayot haqida tasavvur hosil qilayotgan bolalarimiz irimlarning mazmun mohiyati orqali ezgulik va yovuzlik to‘g‘risida mustaqil fikrlay boshlaydi. Nima

yaxshi-yu, nima yomonligini anglaydi. Albatta, yaxshi narsa va tushuncha tomon intiladi.

Xullas, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axolqiy tarbiyasida irimlardan foydalanish orqali quyidagilarga erishiladi:

1. O‘quvchilar axloq me‘yorlari asosida tarbiyalanadi. Bunda ularning estetik, ekologik, diniy, ma‘naviy tarbiyasi amalga oshadi.
2. O‘quvchilar tafakkurining kengayishiga erishiladi.
3. O‘quvchilarning fikrlash malakalari shakllanib, mustaqil va kreativ fikrlashiga erishiladi.
4. O‘quvchilarning mantiqiy mulohaza yuritish ko‘nikmasi shakllanda.
5. O‘quvchilar yaxshilik va yomonlik borasida ma‘lumotga ega bo‘ldai.
6. O‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat hissi paydo bo‘lib, ularning qalbida milliy o‘zlik shakllana borishiga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mensze L. Rechejanrovoye raznoobraziye narodnykh primet (na materiale ornitologicheskix primet russkogo yazyka)// Mir nauki, kultury, obrazovaniya. № 1 (98) 2023. – S.283-288.
2. Darja U.A., Suvandii N.D., Kujuguet M.A. Narodnye primety tuvinsev: tipologiya i osobennosti// Novye issledovaniya tuvny.2022. № 4. – S.213-224.
3. Zavyalova, Ye. Ye. (2013) Primety kak folklornyy janr: opyt sistematzatsii // Znaniye. Ponimaniye. Umeniye.№ 2. S. 187–193.; Kujuguet, Sh. Yu., Suvandii, N. D., Lamajaa, Ch. K. (2021) Problemy perevoda konseptov kultury na drugoy yazyk: na primere tuvinskix konseptov kultury // Polilingvialnost i transkulturnye praktiki. T. 18. № 4.S. 405-420.; Kulkova M.A. Kognitivno-smyslovoye prostranstvo narodnoy primety: avtoref. dis...d-ra filol.nauk. Kazan, 2011; Grushko Ye.A., Medvedev Yu.M. Ensiklopediya russkix primet. M., 2003.; Jarkov S.N. Narodnye primety i predskazaniye pogody. M., 1954; Lyutin A.T., Bondarenko G.A. Narodnoye naslediye o primetax pogody: Kalendar. Saransk, 1993; Mustayev N.A. Narodnye primety: Xotite verte, xotite – proverte? Kazan, 1987; Pavlova Ye.G. Opyt klassifikatsii narodnykh primet / Ye.G. Pavlova // Paremiologicheskkiye issledovaniya. M., 1984. S. 294-299; Stepanov V.A. Narodnye primety o pogoде (v chetyrex sezonax). Kazan, 1997; Strijev A.N. Kalendar russkoy priroды. M., 1968; Torpakova O. Primety na kajdy den. M., 1996; Tokarev S.A. Primety i gadaniya // Kalendarnye obychai i obryady v stranax zarubejnoj Yevropy. Istoricheskiye korni i razvitiye obyчайev. M., 1983. – S. 55-67; Fattaxova N.N., Kulkova M.A. Narodnye primety v raznostrukturnyx yazykax. M., 2013; Xarchenko V.K. Narodnye primety v russkoy i natsionalnoy kulture // Russkiy yazyk i literatura v kirgizskoy shkole, 1991. № 1. S. 52-55; Xristoforova O.B. K voprosu o strukture primety // Arbor mundi = Mirovoye derevo. M., 1998. Vyp. 6. S. 30-47; Chernova I. Primety drevnix slavyan. M., 2006; Au F.v. Bauernregeln und Naturweisheiten München: Cormoran, 1997; Bahr H.-P. Wetterregeln mir

immerwährendem Kalendarium. Leipzig, 1988; Bauern- und Wetterregeln. 2. Auflage. Stuttgart, 2003; Brandt D.-M. Heilige Helfer für Winzer und Wein. Ein Kalenderbuch über Heiligenlegenden, Wetterregeln und Bauernsprüche, Weinwunder und Volksbrauchtum, Kunst- und Kirchengeschichten. Würzburg, 1993; Dundes A. Analytic Essays in Folklore. The Hague, 1975; Gratzner R. Kalter Stern und neuer Mond: Holzregeln, Mondjahr und Bauernpraktikum im Alpenraum. Klagenfurt: Heyn, 1986.

4. Qayumov O.S. O‘zbek shomon folklori poetikasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2021.– B.75.
5. Qayumov O.S. O‘zbek folklorida pari obrazi(genezisi va poetikasi). Filol.fan nomz.diss. – Toshkent, 1999. – B. 89.